



VIRTUAL O'YINLARNING INSON ONGIGA TA'SIRI

Ahmedov Abdulhay Toshto'xtayevich

Igamberdiyev Donyor

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy
fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Davronova Bahoroy

Hakimjonova Buzaynab

Mashrabboyeva Mubina

Andijon davlat pedagogika instituti Aniq fanlar
fakulteti Fizika yo'nalishi 101-guruh talabalari

Annotatsiya: Virtual o'yinlar insonlarning ongini juda tez zararlamoqda. Chunki hozirgi payta yoshidan qat'i nazar ko'p insonlarning sog'ligiga ham zarar yetmoqda. Biz yoshlarimizga hozir ko'p kitoblar berishimiz kerak.

Kalit so'zlar: Virtual, jamiyat, ong, kompyuter, o'yinlar, Pubg, Call of duty, Counter strike, Gitta, Ko'k kit, Zombie, Vinnie poon, internet, zararli va foydali.

Аннотация: виртуальные игры очень быстро поражают умы людей. Потому что настоящий момент также вредит здоровью многих людей, независимо от возраста yetmoqda. Biz мы должны дать нашей молодежи много книг прямо сейчас.



Ключевые слова: виртуальный, общество, сознание, компьютер, игры, PUBG, Call of Duty, Counter Strike, Gitta, Синий кит, зомби, Винни-Пун, интернет, вредоносный и полезный.

Abstract: Virtual games are hurting human minds very quickly .Because even harm to the health of many people, regardless of the age of the current pace yetmoqda.Biz we have to give our young people a lot of books now.

Key words: virtual, community, mind, computer, games, PUBG, Call Of Duty, Contor Strike, Gitta, Blue Whale, zombie, Winnie The Pooh, Internet, malicious and useful.

Virtual o'yinlar butun dunyo bo'ylab millionlab odamlar muntazam ravishda o'ynaydigan bugungi jamiyatda tobora yuksalib ketmoqda. Ushbu o'yinlar o'yinchilar uchun qiziqarli va hayajonli tajriba taqdim etishi bilan birga, ularning jamiyatga ta'siri haqida ham savollar tug'dirmoqda. 21 asrda dunyoning tubdan o'zgarib, jadal rivojlanishi yangicha uslublar tez tarqalib ketmoqda. Yoshlar ongida vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'ularini shakllantirish, va shuningdek, mustaqillikning oily ne'mat ekanligini yanada yoshlar ongiga sindirish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda esa yoshlarning qalbi va ongini egallashga harakat qilayotgan turli xil vayronkor g'oyalarning kirib kelishi internet tarmoqlari orqali yaqqol ko'zga ko'rinadi. Bu jarayon yoshlarni kompyuter texnologiyalari orqali turli xil har xil o'yinlarga bo'lgan qiziqishlari ortib boryapti. Bu o'yin orqali yoshlarga qanchalik ta'sir etishini va jamiyat taraqqiyotiga zararli bo'lgan oqibatlarini keltirib chiqarishini yaxshi bilgan targ'ibotchilar o'z maqsadlari yo'lida samarali usullar bilan harakat qilmoqda. O'smirlarni o'yinda o'tkazayotgan vaqtlari va ko'ppul sarflashini shu orqali ota-onalariga yolg'on gapirib pulni behudaga sarf qilishlari shular orqali kelib chiqadi. Virtual o'yinlarga misol uchun: Pubg, Call of duty,



Contor strike, Gitta, Ko'k kit, Zombie, Vinnie poon mana shu o'yinlar orqali yoshlar o'zi bilmagan holda xavfli o'yinlar o'z girdobiga tortmoqda.

Bu o'yinlarni yoshlarga foydali tomonlari bor deb aytolmaymiz chunki, ongiga o'z ta'sirini o'tkazib jalb qilsa qiladiki, lekin boshqacha ma'naviy g'oyalarni singdirmaydi. Virtual o'yinlar shunday o'ziga jalb qiladiki, yutsa yutmasa, u o'yindan chiqa olmaydi. Yana pul tikish orqali ham amalga oshyapti Ko'rinib turibdiki, bu holatda ota-onalarni ham e'tiborsizligi ham farzand tarbiyasiga qiziqmasligi, o'z holiga qo'yib qo'yishlari, tergamasliklari ham shunday ayanchli ahvolga olib kelyapti. Bu o'yinlar sog'liqqa ham ta'sir qiladi, ko'z nurini ketishi, insult, infark, yurakka ham o'z ta'sirini ko'rsatadi, miya faoliyatini buzadi oxiri o'lim holatiga ham olib kelishi mumkin. Eng avvalo, yoshlarni bu yo'ldan qaytarishga yoki ummuman bu o'yinlar iskanjasiga tushib qolmasligiga ota-onalarni ham xizmati asosiy rollarni egallaydi.

Chunki boshidan tarbiyani yaxshi berish farzandiga nisbatan e'tiborsiz bo'lmasligi qayerga borayapti? kim bilan ?qanday vaqt o'tkazyapti? nimalar bilan band ? atrofdagi do'stlari kim? shu kabi tomonlarini hisobga olgan holatda o'z farzandlari bilan birgalikda ishlasa, ya'ni nazoratni qattiqroq ushlasa, bunaqa oxiri fojia bilan tugaydigan voqea yuz bermaydi. Shu jumladan N.Komilov aytganlaridek: „Odam qanchalik nodon bo'lsa, u xurofotga so'zlar sehriga shakllarga mahliyo bo'ladi, rasm-rusumga aqidalarga shuncha beriluvchan bo'ladi.Va aksincha, odamning ma'rifati, bilimi oshgan sari, u mazhabparastlikdan, aqidaparastlikdan yuqori ko'tarilaveradi”. Bolani yoshligidan telefon berib o'rgatmaslik kerak shu imkoniyatdan kimdir noto'g'ri maqsadda foydalanadi.Bolani yoshligidan yolg'on gapirmaslikka, to'g'ri fikrlashga shuningdek, internet yoki boshqa narsalardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish Vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirish oiladan boshlanadi. Aslida yomon o'yinlarga kimdir majburlab olibkirmaydi, yoki o'yna demaydi, odamni o'zida ham bu to'g'ri bu noto'g'ri degan tushuncha bo'lishi kerak.

Internetdan qanday foydalanish o'zimizning qo'limizda. Har bir narsani foydasi bo'lganidek zararli tomonlari bor.Hozirgi kunda hamma ham Internetdan to'g'ri



foydalanmayapti. Bilib-bilmay o'zi hohlamagan oqimlarga qo'shilib yoki o'yinlar ta'sirida noto'g'ri yo'lga kirib ketyapti. Shu sababli ularni oldini olish uchun ota-onalarni va yoshlarni o'zini ham yanada o'z hayotlariga befarq bo'lmasliklarini alohida ta'kidlab o'tamiz.

Xulosa: Biz yoshlarni ongini to'g'ri yo'lga solishimiz zarur va kerak. Ko'p insonlar kitoblarni o'qimay qo'yidilar undagi mazmun mohiyatlarni tushinib keng fikrlashar kamayib ketmoqda o'yinlar sabab ham bu yoshlar o'zlari uchun eng kerakli bo'lgan eng qimmat vaqtlarini ketkizishmoqda. Bugun biz uchun keng imkoniyatlar berilayotgan dunyoda yashayotgan ekanmiz ulardan unumli, oqilona foydalanishimiz darkor. Kelajakda Vatanimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jabborov S(2017) Media savodxonlik va uning ahamiyati. O'zbekiston jurnalistikasi.
2. Toshtemirov R. A. (2023). Media education is an important factor in protecting young people from negative information. SCHOLAR, Muktidisciplinary Scientific Journal, Volume 1, ISSUE 29, 2023, Pp 187-195.3.F
3. Muminov SH Barotov ochiq tizimlarida axborot psixologik havfsizlik Toshkent-2013.
4. Ahmedov, A.T. (2024) Kasaba uyushma tashkilotining huquqiy asoslari – demokratiya va oshkoralik prinsiplarini shakllanishi.